



The formation of foreign policy strategy of India: theoretical foundations of the study

Rano TUYCHIYEVA¹

Institute for the Study of Youth Problems and Preparation of Prospective Personnel

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2025
Received in revised form
28 February 2025
Accepted 20 March 2025
Available online
15 April 2025

Keywords:

foreign policy,
strategy,
geopolitics,
diplomacy,
international relations,
security policy,
regional cooperation,
global politics,
evolution of foreign policy,
strategic partnerships.

ABSTRACT

This article is dedicated to the study of the formation and development of the foreign policy strategy of India (Republic of India). It primarily analyzes the key factors shaping its international relations, taking into account the historical, economic, and political context of India. The article highlights changes in India's foreign policy since gaining independence, its position in the global community, strategic partnerships, and strengthened diplomatic ties. It also examines India's security policy, foreign policy initiatives at both regional and global levels, and how the country's geopolitical situation has evolved. Furthermore, the article discusses the new approaches of India's foreign policy that meet modern requirements and its significance in shaping the country's role in the global socio-political system. The main aim of this paper is to study the factors that shape India's foreign policy strategy and assess its importance in world politics.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss3/S-pp135-158>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Hindiston tashqi siyosat strategiyasi shakllanishini o'rganishning nazariy asoslari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

tashqi siyosat,
strategiya,

Mazkur maqola Hindiston (Hindiston Respublikasi) tashqi siyosat strategiyasining shakllanishi va rivojlanishini o'rganishga bag'ishlanadi. Unda asosan Hindistonning tarixi,

¹ PhD in Political Science, Doctoral Student, Institute for the Study of Youth Problems and Preparation of Prospective Personnel. E-mail: rano-tuichiyeva@mail.ru

geosiyosat,
diplomatiya,
xalqaro aloqalar,
xavfsizlik siyosati,
mintaqaviy hamkorlik,
global siyosat,
tashqi siyosat evolyutsiyasi,
strategik hamkorliklar.

iqtisodiy va siyosiy kontekstini hisobga olib, uning xalqaro aloqalarini shakllantirgan asosiy omillar tahlil qilinadi. Maqolada Hindiston mustaqillikka erishganidan keyin tashqi siyosatidagi o'zgarishlar, uning dunyo hamjamiyatidagi o'rni, strategik hamkorliklar va mustahkamlangan diplomatik aloqalar keng yoritilgan. Shuningdek, Hindistonning xavfsizlik siyosati, mintaqaviy va global miqyosda amalga oshirilgan tashqi siyosiy tashabbuslar va ular orqali mamlakat geosiyosiy holatining qanday rivojlangani tahlil qilinadi. Qolaversa, Hindiston tashqi siyosat strategiyasining zamonaviy talablarga javob beradigan yangi yondashuvlari va uning global ijtimoiy-siyosiy tizimdagi o'rnini shakllantirishdagi ahamiyati ham ko'rsatilgan. Ushbu maqolani yozishdan ko'zlangan asosiy maqsad – Hindiston tashqi siyosati strategiyasini shakllantiruvchi omillarni tadqiq qilish va uning dunyo siyosatidagi ahamiyatini baholashdir.

Формирование внешнеполитической стратегии Индии: теоретические основы исследования

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

внешняя политика,
стратегия,
геополитика,
дипломатия,
международные
отношения,
политика безопасности,
региональное
сотрудничество,
глобальная политика,
эволюция внешней
политики,
стратегическое
сотрудничество.

Настоящая статья посвящена исследованию формирования и развития внешнеполитической стратегии Индии (Индийской Республики). В статье рассматриваются ключевые факторы, определяющие международные отношения Индии, с учетом ее исторического, экономического и политического контекста. Освещены изменения во внешней политике Индии после получения независимости, ее место в мировом сообществе, стратегическое сотрудничество и укрепление дипломатических связей. Также проанализированы вопросы безопасности Индии, внешнеполитические инициативы на региональном и глобальном уровнях, а также развитие геополитической ситуации страны. В статье также рассматриваются новые подходы внешней политики Индии, соответствующие современным требованиям, и их значение для формирования ее позиции в глобальной социально-политической системе. Основной целью написания этой статьи является исследование факторов, формирующих внешнеполитическую стратегию Индии, и оценка ее значимости в мировой политике.

KIRISH

Hindiston tashqi siyosat strategiyasi Janubiy Osiyo mintaqasida va global miqyosda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik masalalarida

o'ziga xos yondashuvlarni taklif qiladi. Bu mavzuni o'rganish nafaqat Hindistonning xalqaro maydondagi roli va manfaatlarini anglashga, balki butun dunyo uchun dolzarb bo'lgan muammolarni tushunishga yordam beradi.

Hindiston tashqi siyosat strategiyasining o'ziga xosligi uni o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi. Hindistonning global kuch sifatida o'sishi, mintaqaviy muammolar va xavfsizlik masalalari, ko'p qutbli dunyoda strategik muvozanatning zarurati kabi omillar mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, Hindiston bugungi kunda dunyoning eng yirik iqtisodiyotlaridan biri va geosiyosiy jihatdan muhim o'rinni egallaydi. BMT Xavfsizlik Kengashi doimiy a'zoligi uchun intilayotgan Hindiston global qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etmoqda. Rivojlanayotgan davlatlar manfaatlarini himoya qiluvchi yetakchi sifatida uning roli ortib bormoqda. Hindiston-Pokiston munosabatlari, Xitoy bilan chegara ziddiyatlari va Janubiy Osiyo mintaqasidagi terrorizm kabi muammolar mintaqaviy xavfsizlikka tahdid solmoqda. Hindistonning tashqi siyosati mintaqaviy barqarorlik va rivojlanishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Global kuchlar o'rtasidagi raqobat (masalan, AQSh va Xitoy) Hindistonning tashqi siyosatida o'z manfaatlarini muvozanatlashtirish zaruratini tug'diradi. Hindiston ko'p tomonlama tashkilotlar (BRICS, G20, QUAD) doirasida o'z manfaatlarini ilgari surmoqda.

Shuningdek, Hindiston tashqi siyosat strategiyasini o'rganish nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham muhimdir. Mazkur mavzuni o'rganishning siyosiy nazariya va modelga qo'shgan hissasi, mavzu orqali mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni tahlil qilish va geosiyosiy strategiyalar evolyutsiyasini o'rganish uning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Qolaversa, Hindiston tashqi siyosatini o'rganish xalqaro siyosat va diplomatiya sohalarida ko'plab amaliy masalalarni hal qilishda yordam beradi. Diplomatik strategiyalarni shakllantirishda Hindiston tajribasi boshqa rivojlanayotgan davlatlar uchun foydali bo'lishi mumkin. Xalqaro tashkilotlar faoliyatini takomillashtirishda esa Hindistonning BMTdagi roli ko'p tomonlama diplomatiyaning yangi imkoniyatlarini ochadi. Savdo va iqtisodiy aloqalarda Hindistonning iqtisodiy diplomatiyasi jahon iqtisodiyoti uchun muhim saboqlar beradi.

Hindiston tashqi siyosat strategiyasining shakllanishini o'rganish nafaqat Hindistonning xalqaro tizimdagi o'rnini anglashga, balki xalqaro munosabatlar nazariyasi va amaliyoti bo'yicha yangi yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari global xavfsizlik, iqtisodiy rivojlanish va diplomatiya sohalarida samarali qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Hindiston tashqi siyosati dunyo siyosatida muhim o'rin tutadi. Hindistonning tashqi siyosat strategiyasi tarixiy, geosiyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida shakllandi. Hindiston tashqi siyosatining shakllanishini nazariy jihatdan ilmiy tahlil qilish uchun ushbu mavzuni tarixiy, geosiyosiy va nazariy asoslar bilan tushuntirish zarur. Hindistonning tashqi siyosati mustaqillikka erishgan (1947-yildan boshlab) davrdan beri evolyutsion rivojlanishga ega bo'lib, u xalqaro munosabatlar nazariyalarining turli paradigmatlariga mos ravishda rivojlanib kelmoqda.

Tarixiy asoslar

Hindiston tashqi siyosatining shakllanishi tarixiy jihatdan boy va murakkab jarayon bo'lib, bu siyosatning asosiy tamoyillari, strategiyalari va global ta'sirlar vaqt o'tishi bilan o'zgarib bordi. Hindiston mustaqillikka erishganidan so'ng, uning tashqi siyosati bir qancha xalqaro munosabatlar nazariyalariga asoslanib shakllandi.

Bu jarayonda xalqaro tizimning o'zgaruvchan sharoitlari, Hindistonning geosiyosiy joylashuvi, ichki siyosiy holatlari va global ijtimoiy-iqtisodiy holatlar muhim omillar sifatida o'z aksini topdi.

Hindistonning mustamlaka davridagi tashqi siyosati, asosan, Britaniya imperiyasining global manfaatlariga xizmat qildi. Britaniya imperiyasi o'zining mustamlakachilik siyosatini ishlab chiqdi va Hindistonni o'zining iqtisodiy va siyosiy manfaati uchun boshqardi. Bu davrda Hindistonning tashqi siyosati asosan Britaniya imperiyasining mustahkamligini ta'minlashga qaratilgan edi. Hindistonning Janubiy Osiyo mintaqasidagi strategik ahamiyati, uni Britaniya imperiyasi uchun muhim hududga aylantirdi. Hindistonning joylashuvi, asosan, Britaniyaning Osiyo va Yaqin Sharqdagi ta'sirini mustahkamlash uchun xizmat qildi. Bu davrda Hindiston tashqi siyosatining shakllanishi haqida olimlar, xususan, K.K. Aziz [8, 9] va S.M. Ikram[25]lar Hindistonning mustamlakachilik davrida faqatgina imperiya manfaatlariga xizmat qilganini ta'kidlaydi.

1947-yilda Hindiston mustaqillikka erishganidan so'ng, uning tashqi siyosati yangi sharoitga moslashdi. Hindiston mustaqil siyosatini shakllantirishda, asosan, Javoharlal Neru boshchiligidagi rahbariyatning tashqi siyosati va xalqaro ijtimoiy-huquqiy yondashuvlari muhim rol o'ynadi. J. Neru Hindiston tashqi siyosatining asosiy arxitektori sifatida quyidagi tamoyillarni ilgari surdi:

– Hindistonning tashqi siyosatida Qo'shilmaslik harakati tamoyili asosiy o'rinda turdi. J. Neru Xitoy va Sovuq urush bloklari o'rtasidagi qarama-qarshilikdan qochish uchun Hindistonning neytral pozitsiyasini ilgari surdi. Bu yondashuv K.M. Panikkar [16] va B.K. Neru [45] tomonidan izchil o'rganilgan bo'lib, ular Hindistonning o'zini "har ikki blokdan mustaqil" deb hisoblashgan;

– 1955-yilda Indoneziyada bo'lib o'tgan Bandung konferensiyasida Hindiston boshqa mustaqil davlatlar bilan birgalikda, yangi xalqaro tizimda G'arb va Sharq bloklaridan mustaqil bo'lishga intildi. Hindistonning birinchi ayol tashqi ishlar vaziri Vijay Lakshmi Pandit va Hindistonning shu paytdagi Prezidenti Rajendra Prasad bu harakatning asosiy yetakchilari bo'lib, G'arb va Sharq ta'siridan holi bo'lgan bir necha mustaqil davlatlarni birlashtirishga intildilar.

1962-yilda Hindiston va Xitoy o'rtasida yuzaga kelgan chegara urushi Hindiston tashqi siyosatiga realizm elementlarini kiritishga olib keldi. J. Neru tashqi siyosatda idealistik yondashuvni davom ettirgan bo'lsa-da, Xitoyning agressiv siyosati Hindistonni o'z mudofaa imkoniyatlarini kuchaytirishga majbur qildi.

Pokiston bilan o'rtadagi Kashmir nizosi Hindistonning tashqi siyosatida eng muhim va doimiy omillardan biri bo'lib qoldi. Shashi Sarur [60, 61] va Ayesha Jalal [26, 27] kabi olimlar bu nizo Hindistonning tashqi siyosatini ko'proq realistik va pragmatik yondashuvga olib kelganini ta'kidlaydi.

1960–1991-yillarda Sovuq urush davri Hindiston tashqi siyosatining rivojlanishida muhim o'rin tutdi. J. Neru davridagi qo'shilmaslik siyosati, Sovuq urush davrida Hindistonning xalqaro pozitsiyasi, ayniqsa, Xitoy va Pokiston bilan bo'lgan munosabatlarda o'zgarishlarga olib keldi. 1971-yilgi Hindiston-Pokiston urushi va Hindistonning Sovet Ittifoqi bilan aloqalarining mustahkamlanishi bu davrda Hindiston tashqi siyosatining realizm asosidagi o'zgarishlarini ko'rsatadi.

"Hindistonning Pokiston bilan bo'lgan strategik aloqalari va Xitoy bilan chegara nizolari mamlakat global diplomatiyasini ishlab chiqishga, yaqin qo'shnilar bilan strategik aloqalar o'rnatishga undadi" – deya ta'kidlashadi, Hindiston va Pokiston

o'rtasidagi doimiy nizo va urushlarning Hindistonning tashqi siyosatiga qanday ta'sir ko'rsatganini o'rgangan tarixchi olimlar Tariq Ali [4] va Ayesha Jalal [26, 27].

1991-yilda Hindiston iqtisodiy islohotlarni amalga oshirdi, bu Hindistonning tashqi siyosatiga yangi bir yo'nalish, ya'ni iqtisodiy diplomatiyani olib kirdi. Arvind Panagariya [47, 48] va Bimal Jalan [7] kabi iqtisodchilar Hindistonning iqtisodiy o'sishi va global iqtisodiyotdagi o'rni haqida ayni shunday yangi yondashuvlarni ilgari surdilar.

Jozef Nay va Robert Keohane [30, 31]lar esa Hindistonning tashqi siyosati 1991-yildan keyin global iqtisodiy liberalizatsiya va geosiyosiy o'zgarishlarga muvofiq yangi yo'nalishga intilgani, AQSh bilan aloqalar mustahkamlangani, Xitoy va Pokiston bilan strategik aloqalar esa murakkablashgani, natijada tashqi siyosatdagi liberalizm Hindistonning xalqaro aloqalarini mustahkamlashda asosiy omil bo'lganini ta'kidlaydilar.

Xitoy bilan iqtisodiy va diplomatik raqobat Hindistonning tashqi siyosatini yanada samarali qilishga olib keldi. C. Raja Mohan [40, 41] va Sumit Ganguli [22] bu jarayonni Hindistonning geosiyosiy manfaatlari bilan bog'lab tahlil qilishadi.

Hindiston tashqi siyosatida 2020–2024-yillar global geosiyosiy yondashuvining o'zgarishi bilan kechdi deb aytish o'rinli bo'ladi. Sababi mamlakat tashqi siyosati tamoyillariga ko'plab global omillar ta'sir ko'rsatdi. Hindistonning Xitoy bilan strategik raqobati, AQSh bilan xavfsizlik hamkorligi va yangi iqtisodiy imkoniyatlari uning tashqi siyosatida asosiy o'rinni egalladi.

Muhim va asosiy o'zgarishlardan biri uning ko'p qutbli dunyoga o'tishdagi roli bo'ldi. Jozef Nay va Robert Keohan [30, 31]ning "liberal institutionalism" (erkin institutlar nazariyasi) konsepsiyasiga asoslanib, Hindiston global geosiyosiy jihatdan iqtisodiy, xavfsizlik va ijtimoiy masalalarda hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan yangi siyosatni ilgari surdi. Bu siyosat Hindistonni o'zining global ta'sirini kuchaytirishga, Xitoyning Osiyodagi o'sib borayotgan ta'siriga qarshi kurashishga va AQSh bilan hamkorlikni rivojlantirishga undadi.

2020-yillarda Hindistonning tashqi siyosati ko'p qutbli yondashuvga asoslandi, ya'ni Hindiston xalqaro aloqalarini bir nechta kuchli davlatlar va tashkilotlar bilan o'rnatdi. C. Raja Mohan [40, 41] va Sumit Ganguli [22] kabi olimlar Hindistonning ko'p qutbli dunyoda o'zining strategik mavqeini saqlab qolishga intilishining globallashuv jarayoniga ta'sirini tahlil qilishgan. Hindiston, ayniqsa, Hind-Tinch okeani mintaqasidagi muhim davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashga harakat qildi.

Xitoy bilan bo'lgan geosiyosiy raqobat mamlakat tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xitoyning Osiyodagi ta'siri va uning hududiy kengayishi, jumladan, Hindistonning janubi-sharqidagi davlatlar bilan bog'lanishi, Hindistonni Xitoyga qarshi geosiyosiy kurashga jalb qildi. 2020-yilda Xitoy va Hindiston o'rtasidagi Ladakh hududida yuzaga kelgan chegara mojarosi (2020 yilgi Galvan vodiysi to'qnashuvi) Hindistonni o'zining harbiy va diplomatik strategiyalarini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. Bu voqea Hindistonning "realpolitic" va "containment" (kuzatish va bostirish) yondashuvini kuchaytirdi.

Xitoy bilan raqobatda, Hindiston Hind-Tinch okeani mintaqasida AQSh, Yaponiya va Avstraliya bilan QUAD ("Kvadrilateral xavfsizlik dialogi") kabi platformalar orqali ko'p tomonlama strategiyalarni rivojlantirdi. Shyam Saran va Amitabh Mattu [52] kabi siyosatshunoslar Hindistonning Xitoyga qarshi kurashishda ko'p tomonlama va mintaqaviy xavfsizlik strategiyalarini qo'llashini ta'kidlaydilar.

AQSh bilan hamkorlik 2020–2024-yillarda yanada mustahkamlandi. Hindistonning AQSh bilan strategik hamkorligi Hind okean va Tinch okean mintaqasidagi xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik va texnologiya almashinuvi sohalarida o'sishni davom ettirdi. Shuningdek, AQSh bilan o'zining mudofaa hamkorligini kuchaytirish uchun bir qancha muhim hujjatlar, shu jumladan, "Basic Exchange and Cooperation Agreement for Geospatial Cooperation" (BECA) va "Communications Compatibility and Security Agreement" (COMCASA) imzoladi. Bu hujjatlar Hindiston va AQSh o'rtasidagi harbiy hamkorlikni mustahkamlashga yordam berdi. M.K. Bhadrakumar va Sanjay Barun [12] ning fikricha, Hindiston AQSh bilan strategik hamkorlikni o'zining iqtisodiy va xavfsizlik manfaatlariga to'g'ri kelishini sezdi va bu siyosatni davom ettirdi.

AQSh bilan iqtisodiy hamkorlik 2020-yillarda yanada mustahkamlandi, savdo aloqalari kengaydi va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratildi. Hindistonning AQSh bilan tijorat aloqalarining kuchayishi global iqtisodiyotga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Arvind Panagariya [47, 48] va Raghuram Rajan [51] Hindistonning iqtisodiy diplomatiya orqali AQSh bilan o'zaro foydali aloqalarni rivojlantirishni davom ettirganini ta'kidlaydilar. Shuningdek, 2020–2024-yillarda Hindistonning Hind-Tinch okean mintaqasidagi siyosati xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratildi. Hindiston Xitoyning mintaqadagi ta'sirini cheklash maqsadida, Hind-Tinch okean strategiyasini ilgari surdi va AQSh, Yaponiya va Avstraliya bilan hamkorlikni mustahkamladi. Bu Xitoyning mintaqadagi harbiy faoliyatiga qarshi birgalikda javob berish strategiyasining asosini tashkil etdi. M.K. Narayanan [67] Hindistonning Hind-Tinch okeanidagi rolini kuchaytirish orqali, Xitoyga qarshi muvaffaqiyatli geosiyosiy raqobat olib borish mumkinligini ta'kidlaydi.

Hindiston tashqi siyosatida xalqaro institutlar bilan hamkorlik ham muhim o'rin tutdi. Mamlakat BMT, Jahon savdo tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni davom ettirdi. Iqlim o'zgarishi va yashil texnologiyalarga oid masalalar Hindistonning tashqi siyosatida alohida o'rin oldi. Hindiston 2070-yilga borib "Nol uglerod chiqindilari" ("net zero emissions") maqsadiga erishishni rejalashtirgan. Bu maqsadni mamlakat 2021-yilda BMTning iqlim o'zgarishiga bag'ishlangan COP26 sammitida e'lon qildi. Ushbu tashabbus global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda Hindistonning mas'uliyatini ifodalaydi.

Shunday qilib, Hindiston tashqi siyosatining shakllanishi, tarixiy jihatdan, o'zining mustamlakachilikdan mustaqillikka o'tish va Sovuq urush davrining geosiyosiy sharoitlariga bog'liq bo'lgan bir necha bosqichlardan o'tgan. J. Neru idealizmidan realizmga o'tish, iqtisodiy liberalizatsiya va ko'p qutbli dunyodagi strategiyalar Hindistonning tashqi siyosatida muhim o'rin tutadi. 2020–2024-yillarda Hindiston tashqi siyosati global geosiyosiy o'zgarishlarga, Xitoy bilan raqobat, AQSH bilan hamkorlikka va Hind-Tinch okean mintaqasidagi xavfsizlik muammolariga javoban o'zgarib bordi. Hindiston ko'p qutbli dunyo, xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy diplomatiya va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan siyosatni davom ettirdi. Hindiston tashqi siyosatini tahlil qilishda Hans Morgentau, Jozef Nay, Robert Keohan, Vijay Lakshmi Pandit, Ayesha Jalal kabi olimlarning nazariy yondashuvlari va tahlillari Hindistonning milliy manfaatlarini va xalqaro aloqalarini tushunishga yordam beradi. C. Raja Mohan, Arvind Panagariya va M.K. Bhadrakumar kabi olimlarning tahlillari esa mamlakat tashqi siyosatining asosiy tamoyillari va rivojlanishini yaxshi o'rganishga asos bo'ladi.

Geosiyosiy omillar

Geosiyosiy omillar ham Hindiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilashda muhim faktorlar hisoblanadi. Hindistonning geosiyosiy ahamiyati, uning joylashuvi, tarixiy tajribasi, mintaqaviy va global tahdidlar, iqtisodiy va xavfsizlik masalalari kabi omillar tashqi siyosatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi va Hindistonning tashqi siyosatidagi asosiy yondashuvlar va qarorlar qabul qilish jarayonida o'z aksini topadi.

Avvalo Hindistonning geografik joylashuvi uning tashqi siyosatini shakllantiruvchi eng muhim geosiyosiy omillardan biridir. Mamlakatning Janubiy Osiyo markazidagi strategik joylashuvi uni O'rta Sharq, Janubi-Sharqiy Osiyo, Osiyo-Tinch okeani mintaqalari bilan aloqalarga jalb qiladi. Bu joylashuv Hindistonni mintaqaviy va global xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik va siyosiy ta'sir uchun muhim aktorga aylantiradi.

Geosiyosiy jihatini tahlil qiladigan bo'lsak, mintaqaviy xavfsizlik nuqtai nazaridan Hindistonning Xitoy va Pokiston bilan chegara mojarolari hamda O'rta Sharqdagi xavfsizlik masalalari mamlakat tashqi siyosatining asosiy elementlariga aylangan. K. Subrahmanyam [57, 58] va S. Raghavan [68] Hindistonning Pokiston va Xitoy bilan chegara nizolari uning tashqi siyosatidagi asosiy muammolar sifatida tahlil qilganlar. Bu omillar Hindistonni o'zining harbiy qudratini oshirish va mintaqada xavfsizlikni ta'minlash uchun ko'proq resurs sarflashga majbur qiladi.

"Hindistonning Hind-Tinch okeanidagi joylashuvi, Xitoyning mintaqadagi kuchayishiga qarshi Hindistonni hamkorlikka jalb qilishga undaydi. Hindiston AQSh, Yaponiya va Avstraliya bilan QUAD ("Kvadrilateral xavfsizlik dialogi") kabi xavfsizlik tashkilotlarida faol ishtirok etadi, bu Hindistonning global xavfsizlikka ta'sirini oshiradi", C. Raja Mohan [40, 41] Hindistonning Hind-Tinch okean mintaqasida o'zining strategik rolini va Xitoyga qarshi kurashda qanday geosiyosiy yondashuvlarni qo'llashini tahlil qilib shunday fikr bildiradi.

Shuningdek, Xitoy va Pokiston bilan bo'lgan raqobat Hindiston tashqi siyosatining markazida turadi. Hindiston Xitoy va Pokistonni o'zining eng asosiy geosiyosiy raqiblari sifatida ko'radi. Xitoyning Osiyodagi ta'siri va Pokistonning Hindiston bilan bo'lgan tarixiy aloqalari, mamlakat tashqi siyosatidagi asosiy tahdidlarni tashkil qiladi. Jon Ikenberri va Amitav Acharya [1, 2, 3] kabi olimlar Xitoyning Osiyodagi kuchayishini Hindistonning tashqi siyosatiga qanday ta'sir qilganini va Hindistonning "containment" strategiyasini qanday qo'llashini tahlil qilishadi.

Pokiston bilan o'zaro aloqalar va Kashmir masalasi Hindistonning tashqi siyosatida katta ahamiyatga ega. Hindistonning Pokiston bilan chegaradagi geosiyosiy nizolari, Xitoy va Pokiston o'rtasidagi strategik ittifoq Hindistonning tashqi siyosatini yanada murakkablashtiradi. Ayesha Jalal [26, 27] va Shahid Javed Burki [69] Hindiston va Pokiston o'rtasidagi geosiyosiy raqobatni tahlil qilib, bu nizo Hindistonning tashqi siyosatining asosi sifatida qolishini ta'kidlashadi.

Qolaversa, Hindiston tashqi siyosatda iqtisodiy diplomatiyaga katta e'tibor qaratadi. Mamlakat o'z iqtisodiyotini global iqtisodiyotga integratsiya qilishga harakat qiladi, shu bilan birga, xalqaro savdo va investitsiyalarni jalb etish, yangi bozorlarni ochish va global iqtisodiy tizimda o'z o'rnini mustahkamlashga intiladi.

Mamlakatning iqtisodiy geosiyosiy strategiyalariga misol tariqasida mamlakatning ko'zlayotgan savdo va iqtisodiy integratsiyalarini keltirish mumkin. Hindiston AQSh, Yevropa Ittifoqi va Osiyo davlatlari bilan savdo va iqtisodiy aloqalarini kengaytiradi.

Arvind Panagariya [47, 48] va Raghuram Rajan [51] Hindistonning iqtisodiy diplomatiyasini yanada mustahkamlash, xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirish va yangi texnologiyalarni o'zlashtirish jarayonlarini tahlil qilishadi.

Kunal Basu [11] Hindiston ShHT va BRICS kabi tashkilotlar orqali mintaqaviy va global iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga harakat qilishi, mamlakat ushbu tashkilotlardagi faoliyati orqali mintaqaviy integratsiya va global iqtisodiy aloqalarni kengaytirishdagi rolini oshirishga urinishini ta'kidlaydi.

Hindiston tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatadigan yana bir muhim omil – uning ijtimoiy va madaniy holati. Hindistonning keng milliy xilma-xilligi, etnik, diniy va madaniy boyligi global aloqalarida katta o'rin tutadi. Hindiston o'zining madaniy merosini va demokratiya tamoyillarini targ'ib qilishga intiladi hamda madaniy diplomatiyasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Sashi Sarur [60, 61] va Ramesh Kumar [35] Hindiston madaniy diplomatiyasini va xalqaro maydonda o'zining "soft power" (yumshoq kuch)ni qanday ishlatganini tahlil qilishadi. Hindistonning kino sanoati, yoga va adabiyot orqali dunyo bo'ylab madaniy aloqalarni mustahkamlashga intilishi uning tashqi siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Hindistonning tashqi siyosatini shakllantirishdagi nazariy yondashuvlar uning global tizimdagi pozitsiyasini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Bu siyosat nafaqat Hindistonning ichki va tashqi manfaatlarini, balki uning tarixiy, geosiyosiy va iqtisodiy omillarni ham hisobga olgan holda shakllanadi. Mamlakat tashqi siyosati shakllanishiga oid nazariy yondashuvlarni realizm, liberalizm, Qo'shilmaslik harakati va geosiyosiy nazariyalarga asoslanib tahlil qilish uni batafsil va tushunarli bayon qilishga xizmat qiladi.

Realizm davlatlarning xalqaro tizimda o'z xavfsizligini va manfaatlarini ta'minlash uchun kuchga asoslangan siyosatni ilgari suradi. Bu yondashuvda Hindistonning tashqi siyosatida xavfsizlik va geosiyosiy manfaatlar ustuvor bo'ladi. Realizm nazariyasiga ko'ra, Hindiston o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yadro qudratini rivojlantirish, Xitoy va Pokiston bilan diplomatik aloqalarini o'rnatish zaruratini ko'rgan.

Hindiston 1974-yilda yadro sinovini amalga oshirib, o'zining xavfsizligini ta'minlashda realistik yondashuvni ko'rsatdi. Xitoy va Pokiston bilan mintaqaviy raqobat Hindistonni o'z yadroviy qudratini rivojlantirishga undadi. Realist nazariyaga ko'ra, davlatlar o'z xavfsizliklarini kuch orqali ta'minlashga intiladi. Hindistonning yadroviy qudratini oshirishni davom ettirishi, uning mintaqaviy xavfsizlik siyosatining ajralmas qismi bo'lib qolgan. Pokiston bilan Kashmir masalasi Hindistonning tashqi siyosatida realist yondashuvning yanada aniqroq namunasidir. Realizmda davlatlar o'z manfaatlarini himoya qilish uchun harakat qiladi, bu esa Hindistonni Pokiston bilan doimiy qarama-qarshilikka olib kelmoqda.

Jahon olimlaridan Jon Marsheimer [39] o'zining "The Tragedy of Great Power Politics" asarida xalqaro siyosatda davlatlar o'rtasidagi kuchning dominantligini ta'kidlaydi. Hindistonning yadroviy qudratini rivojlantirishni, uning o'z xavfsizligini ta'minlash uchun kuchga tayanishning eng yaqqol ko'rinishi deb qaraydi. Hindistonning AQSh bilan aloqalarni rivojlantirishidagi realist yondashuv xavfsizlik va kuchga asoslangan qarorlarni ko'rsatadi.

Keyingi liberalizm yondashuvi davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalar, iqtisodiy hamkorlik va inson huquqlarini ilgari suradi. Hindistonning tashqi siyosatidagi liberalizmning ta'siri 1990-yillardagi iqtisodiy islohotlar, global hamkorlik va demokratik

qadriyatlar asosida shakllanadi. Mamlakatning xalqaro tizimda mustahkamlashga qaratilgan siyosatida liberalizm tamoyillari muhim o'rin tutadi.

Liberalizmning Hindiston tashqi siyosatiga ta'siri sifatida quyidagilarni misol qilish mumkin:

1991-yildagi iqtisodiy islohotlar Hindistonni global iqtisodiyotga integratsiya qilishga imkon yaratdi. Liberalizmning asosiy tamoyillari, ya'ni iqtisodiy erkinlik va integratsiya Hindistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (WTO) qo'shilishiga sabab bo'ldi. Bu Hindistonning global savdo tizimidagi ishtirokini yanada kengaytirdi.

Hindistonning demokratik tizimi xalqaro aloqalaridagi qadriyatlarga ham ta'sir etdi. Hindistonning AQSh va Yevropa Ittifoqi bilan yaqin aloqalari, liberalizmdan ilhomlangan tashqi siyosatni yoritadi.

Jahon olimlari Robert Keohan va Jozef Nay [31] o'zlarining *"Power and Interdependence"* asarida davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy va diplomatik aloqalarning muhimligini ta'kidlaydi. Hindistonning AQSh va Yevropa Ittifoqi bilan yaqin aloqalarini rivojlantirishi, liberalizmning iqtisodiy va diplomatik integratsiya tamoyillariga mos keladi.

Amartya Sen [54] ning *"Development as Freedom"* asarida Hindistonning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti liberalizm tamoyillari asosida tahlil qilinadi. Sen Hindistonning tashqi siyosatidagi liberal yondashuvni, uning o'z iqtisodiy o'sish va inson huquqlarini ilgari surishga intilishidagi asosiy omil sifatida baholaydi.

Yana bir asosiy nazariya Qo'shilmaslik, ya'ni "non-alignment" yondashuvi Hindiston tashqi siyosatining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, J. Neru davridan boshlab, Hindiston mustaqillik va neytralitetni o'z tashqi siyosatining asosiy tamoyillari sifatida belgilagan. Qo'shilmaslik siyosati Hindistonni G'arb va Sharq bloklarining o'zaro raqobatidan himoya qilishga qaratilgan edi.

Ushbu yondashuvni Hindiston tashqi siyosatiga ta'siri nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, Hindiston 1961-yilda Qo'shilmaslik harakatini tashkil etdi va bu harakatning yetakchi davlatiga aylandi. Bu, xususan, Hindistonning mustaqillikni saqlashga va global siyosiy ziddiyatlardan chetda turishga qaratilgan siyosatini ifodalaydi. J. Neru va keyinchalik uning qizi Indira Gandi qo'shilmaslik siyosatini ilgari surdilar va xalqaro aloqalarda Hindistonning neytral pozitsiyasini saqlashga harakat qildilar. J. Neru o'zining *"The Discovery of India"* [44] asarida qo'shilmaslik siyosatining Hindistonning mustaqil tashqi siyosatidagi o'rnini tushuntiradi. Neru bu siyosatni davlatlar o'rtasidagi tenglikni ta'minlashga va yangi mustaqil davlatlarning o'z siyosiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan deb ko'rsatadi. "Hindiston strategik hamjamiyatining otasi" nomini olgan taniqli siyosatchi K. Subrahmanyam Hindiston qo'shilmaslik siyosatining xalqaro ziddiyatlardan chetda turishni ta'minlashdagi ahamiyatini tahlil qiladi. U qo'shilmaslik siyosatini mamlakat milliy manfaatlarini himoya qilish va global tizimda neytral pozitsiyani saqlashga qaratilgan strategiya sifatida ko'radi.

AQShlik olimlar Hindiston tashqi siyosatini tahlil qilishda bir qator yondashuvlar va konseptual modellardan foydalanadilar. Ular Hindistonning globallashuvdagi roli, uning xavfsizlik siyosati, iqtisodiy strategiyalari va mintaqaviy integratsiyasi masalalarini o'rganishga katta e'tibor qaratadilar. AQSh olimlarining Hindiston tashqi siyosatiga bo'lgan yondashuvlari ko'pincha Hindistonning xalqaro maydondagi strategik manevrlari, asosan, Xitoy va AQSh bilan aloqalari, shuningdek, Hindistonning iqtisodiy o'sishi va uning mintaqaviy xavfsizlikdagi o'rni atrofida shakllanadi.

Z. Bjezinskiy [14] o'zining *"The Grand Chessboard"* asarida Hindistonning O'rta Osiyo va Osiyo-Tinch okeani hududidagi geosiyosiy o'rnini muhim deb ta'kidlaydi. Genri Kissinjer [32] Hindistonning tashqi siyosatda geosiyosiy o'rnini va yadroviy qudratini rivojlantirishni ko'rsatadi. Uning fikricha, Hindiston o'zining geosiyosiy manfaatlarini saqlash uchun kuchga tayanadi.

A.J. Tellis [59] Hindistonning strategik mustaqillikni saqlab qolishga bo'lgan intilishlarini o'rganadi va mamlakat xavfsizlik siyosatini Xitoy bilan bog'liq muammolar orqali tahlil qiladi. Tellis Hindistonning Xitoyga qarshi strategik tizimlarini rivojlantirishda AQSh bilan hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. U Hindistonning Hind-Tinch okeani mintaqasidagi xavfsizlikni ta'minlashda AQSh bilan o'zaro strategik aloqalarini muhim deb hisoblaydi.

Sumit Ganguli [22] Hindistonning AQSh bilan xavfsizlik sohasidagi hamkorligini tahlil qiladi. U Hindistonning mintaqaviy xavfsizlikda AQSh bilan yaqinlashishi hamda Xitoyning kengayishini oldini olishga ko'proq ahamiyat berishini ko'rsatadi. Ganguli Hindistonning AQSh bilan mudofaa aloqalarini mustahkamlashi mintaqaviy xavfsizlikka hissa qo'shishini ta'kidlaydi.

Arvind Panagariya [47,48] Hindiston iqtisodiy siyosatining rivojlanishidagi strategiyalarni tahlil qiladi va Hindistonning global iqtisodiyotda o'z o'rnini mustahkamlashini ko'rsatadi. U Hindistonning savdo aloqalarini rivojlantirish va AQSh bilan iqtisodiy aloqalarini kengaytirishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Panagariya Hindistonning texnologiya va sanoat rivojlanishi orqali AQSh bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish imkoniyatlarini o'rganadi.

David Shambaf [55] Hindiston va AQSh o'rtasidagi xavfsizlik aloqalarini o'rganadi. U Hindistonning o'zining strategik mustaqilligini saqlab qolgan holda, AQSh bilan xavfsizlik hamkorligini rivojlantirish orqali global va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini ta'kidlaydi. Shambaf Hindistonning terrorizmga qarshi kurashdagi sa'y-harakatlarini, AQSh bilan o'zaro mudofaa aloqalarini va mintaqaviy xavfsizlikka qo'shgan hissasini ko'rsatadi.

AQSh olimlari Hindistonning diplomatik yondashuvlarini, ayniqsa, uning ko'p vektorli tashqi siyosatidagi o'rnini tahlil qiladilar. Hindistonning global va mintaqaviy diplomatik aloqalari, ko'p tomonlama tashkilotlarda ishtiroki va xalqaro maydonda o'zining strategik manfaatlarini ilgari surishdagi sa'y-harakatlarini o'rganish AQSh olimlarining tadqiqotlarida keng yoritiladi. Xususan, Uiliam Ansolis [5] Hindistonning global va mintaqaviy diplomatik aloqalarini tahlil qilgan va Hindistonning xalqaro tashkilotlardagi ishtirokini, ayniqsa, BMT, BRICS va Hind-Tinch okeani mamlakatlari tashkilotlaridagi o'rnini o'rganadi. U Hindistonning ko'p tomonlama diplomatiyadagi roli va uning global siyosatdagi ta'sirini kengaytirish strategiyalarini tahlil qiladi.

Maykl Kugelman [36] Hindistonning O'rta Osiyo davlatlari bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishini tahlil qiladi. U Hindiston va O'rta Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi xavfsizlik va iqtisodiy aloqalarining rivojlanishini AQSh uchun muhim geosiyosiy sharoit deb hisoblaydi. Hindistonning bu mintaqadagi strategik hamkorligi AQSh uchun ham mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda muhimdir.

Yevropalik olimlar Hindiston tashqi siyosatiga nisbatan turli yondashuvlarni taklif qilganlar. Ularning tahlillari asosan Hindistonning Yevropa bilan aloqalari, xalqaro siyosatdagi pozitsiyasi va mintaqaviy xavfsizlikka bo'lgan yondashuvlari asosida shakllangan. Yevropa mutaxassislari Hindiston tashqi siyosatining yuksalishi, uning

mustaqil diplomatiyasi, iqtisodiy o'sishi va global xavfsizlikka ta'siri haqida keng tahlillar olib borishadi. Ularning yondashuvlari Hindistonning xalqaro tizimdagi roli va uning asosiy hamkorlari bilan aloqalarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Frederik Grare [24] Hindistonning global siyosatdagi o'rnini tahlil qilishda uning Xitoy va AQSh bilan o'zaro raqobatini va Yevropa bilan aloqalarini muhokama qiladi. Uning fikricha, Hindiston Yevropaning Xitoy va AQSh bilan o'zaro aloqalariga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilish muhimdir. Grare Hindiston va Yevropa o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratadi.

Britaniyalik olim David Skot [53] mamlakatning tashqi siyosatidagi mustaqil yondashuvini tahlil qiladi. Uning fikricha, Hindiston Yevropaga bo'lgan aloqalarini rivojlantirish orqali mintaqaviy xavfsizlik va global barqarorlikni ta'minlashga harakat qilmoqda. Skot Hindistonning Hind-Tinch okean hududidagi strategik rolini va uning Yevropa bilan o'zaro aloqalarini kengaytirishdagi o'rnini ko'rsatadi.

Germaniyalik olim Tomas Blanchard [13] Hindistonning tashqi siyosatidagi yuksalishni va uning Yevropa bilan aloqalarini ko'rib chiqadi. U Hindistonning global ta'sirini kengaytirish va Yevropa bilan iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish yo'llarini tahlil qiladi. Blanchardning fikriga ko'ra, Hindiston va Yevropa o'rtasidagi aloqalar iqtisodiy va strategik manfaatlarga asoslanadi.

Pier Deleru [17] Hindistonning Yevropa bilan xavfsizlik sohasidagi hamkorligini tahlil qiladi. U Hindistonning Xitoyga qarshi kurashda Yevropaning qo'llab-quvvatlashiga bo'lgan ehtiyojini ta'kidlaydi.

Rossiya Hindiston bilan o'zaro aloqalarini xavfsizlik, strategik hamkorlik va xalqaro siyosatning umumiy doirasida ko'rib chiqadi. Hindistonning tashqi siyosatidagi asosiy yo'nalishlar, jumladan, uning qo'shni davlatlar bilan aloqalari, Xitoy bilan raqobati va mintaqaviy barqarorlikka bo'lgan yondashuvi Rossiya olimlari tomonidan alohida tahlil qilinadi. Aleksey Arbatov [6] Hindiston va Rossiyaning xavfsizlik sohasidagi hamkorligini o'rganadi. U Hindistonning harbiy texnologiyalarini modernizatsiya qilishda Rossiyaning o'rne va ahamiyatini ta'kidlaydi. Arbatovning fikriga ko'ra, ikki davlatning o'zaro yaqin aloqalari mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi, xususan, Xitoy va AQSh bilan o'tkaziladigan strategik raqobatda. Dmitriy Trenin [62] esa Hindistonning tashqi siyosatidagi o'zgarishlarni tahlil qilgan holda, Rossiyaning Hindiston bilan uzoq muddatli strategik hamkorlikni qanday rivojlantirayotganini ko'rsatadi. U Hindiston va Rossiyaning mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlikdagi o'zaro manfaatlarini muhokama qiladi. Treninning fikricha, Hindiston va Rossiya o'rtasidagi aloqalar global va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Hindiston tashqi siyosatining shakllanishi nafaqat G'arb olimlari tomonidan, balki Osiyo davlatlari, xususan, Yaponiya va Xitoy mutaxassislari tomonidan ham keng ilmiy tahlil qilingan. Ularning yondashuvlari Hindistonning geosiyosiy ahamiyatini va mintaqadagi o'rnini ko'rib chiqishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Yaponiyaning hindistonshunos olimlari mamlakatning tashqi siyosatiga doir tahlillarini, asosan, mintaqaviy hamkorlik, xavfsizlik va iqtisodiy aloqalar nuqtai nazaridan olib boradilar. Yaponiyaning geosiyosiy manfaatlari Hindiston bilan iqtisodiy aloqalar va Xitoy bilan raqobatga qaratilgan. Shuningdek, yapon mutaxassislari Hindistonning o'z tashqi siyosatida qo'shilmaslik va neytralitetga katta ahamiyat berishini, shu bilan birga, ikkinchi Jahon urushidan keyin Yaponiyaning ham ayni yo'ldan

borishini ta'kidlaydilar. Bu nuqtai nazardan, Hindiston va Yaponiyaning global va mintaqaviy xavfsizlikka qaratilgan siyosatidagi o'xshashliklar kuzatiladi.

Yoichi Funabashi [21] o'zining *"Asia's Cauldron"* asarida Osiyo davlatlari, jumladan, Hindistonning Xitoy bilan raqobati va mintaqada o'z o'rnini mustahkamlashdagi ahamiyatini muhokama qiladi. Funabashi Hindiston va Yaponiyaning Xitoyga qarshi strategik hamkorligini, ularning mintaqada tinchlikni saqlashdagi ahamiyatini yoritadi. Hindistonning Xitoy bilan geosiyosiy raqobati Yaponiyaning xavfsizlik siyosatida ham muhim omilga aylanadi.

Ryoji Sato Hindiston va Yaponiyaning iqtisodiy va xavfsizlik aloqalarini, mintaqaviy xavfsizlikka bo'lgan yondashuvlarini tahlil qiladi. U Hindistonning xalqaro tizimda, xususan, Yaponiya bilan mintaqaviy hamkorlikda o'z pozitsiyasini kuchaytirishga qaratilgan harakatlaridan so'zlaydi.

O'z navbatida Xitoyning hindistonshunos olimlari Hindistonning tashqi siyosatini, asosan, Xitoy bilan strategik raqobat va mintaqaviy xavfsizlik nuqtai nazaridan tahlil qiladilar. Xitoy va Hindistonning geosiyosiy raqobati, shuningdek, Uzoq Sharq va Janubiy Osiyodagi o'zaro aloqalari Xitoy mutaxassislari keng qamrovda qiziqtiradi. Ular, ayniqsa, ikki davlat o'rtasidagi Kashmir masalasi, chegaradagi to'qnashuvlar va iqtisodiy raqobatni tahlil qiladilar. Xitoyning Hindiston bilan o'tkazilgan harbiy va iqtisodiy aloqalari, asosan, mintaqadagi gegemonlik kurashiga qaratilgan. Xitoy Hindistonning mintaqaviy integratsiyasini va o'zining *"Bir kamar bir yo'l"* tashabbusiga qo'shilishni xohlamaydi, chunki bu tashabbus Hindiston uchun Xitoyning geosiyosiy kuchini oshiradi. Hindiston, o'z navbatida, bu tashabbusga qarshi bo'lib, uning mintaqadagi ta'sirini kamaytirishga harakat qiladi.

Xitoylik olimi Zhu Feng [19] o'zining *"China's Foreign Policy: A New Era"* asarida Xitoy va Hindiston o'rtasidagi iqtisodiy va harbiy raqobatni o'rganadi. U Hindiston va Xitoyning o'zaro raqobatini mintaqaviy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi omil sifatida ko'rsatadi. Feng Hindistonning geosiyosiy mustaqilligi, o'zining xalqaro siyosatida Xitoyga qarshi kurashayotganini ta'kidlaydi. Li Xie [65] Xitoy va Hindiston o'rtasidagi strategik raqobatni, ayniqsa, ular o'rtasidagi chegara masalalari, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi omillarni muhokama qiladi. Xie Hindistonning mintaqadagi ta'sirini oshirishga qaratilgan tashqi siyosatini tahlil qilib, bu strategiya Xitoyga bo'lgan ta'sirini baholaydi.

Hindistonning tashqi siyosatiga yaponiyalik va xitoylik mutaxassislarning yondashuvlari global siyosatdagi yangi o'zgarishlarni, geosiyosiy kuchlarning tenglashuvini va mintaqaviy integratsiyaning ahamiyatini ko'rsatadi. Hindistonning mintaqadagi pozitsiyasini mustahkamlashga qaratilgan tashqi siyosat, Yaponiyaning iqtisodiy va xavfsizlik manfaatlari bilan uyg'unlashgan holda, Xitoyning ta'siriga qarshi kurashishga intiladi. Shuningdek, Hindistonning mintaqadagi barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rni borligi va uning mintaqaviy xavfsizlikka bo'lgan yondashuvlarini yanada rivojlantirishi muhimdir.

Aytish mumkinki, Hindistonning mintaqadagi o'zaro aloqalarini rivojlantirishda Yaponiya asosiy sheriklardan biri sifatida o'rin tutadi. Yaponiyaning Xitoy bilan geosiyosiy raqobatda Hindiston bilan strategik hamkorlikni mustahkamlashga intilishi, ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy va xavfsizlik aloqalarining kuchayishiga sabab bo'ladi. Hindiston va Xitoy o'rtasidagi geosiyosiy raqobat, ayniqsa, Kashmir va chegaradagi ziddiyatlar doirasida davom etadi. Xitoyning global va mintaqaviy siyosatida Hindistonni o'z raqibiga aylantirish va uning mintaqadagi ta'sirini kamaytirishga intilishi seziladi.

Hindistonning strategiyasi Xitoyning iqtisodiy va harbiy kuchini cheklashga va mintaqadagi muhim strategik o'rni uchun kurashga qaratilgan.

